



**“GEOIQTISODIYOT:
BUYUK IPAK YO‘LINING MODERN BOSQICHI”**

Abduraxmonov Shohruh Sherzod o‘g‘li

Alfraganus universiteti

*Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy
munosabatlar yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Xalmatjanov Farxod Maxammatjanovich

Alfraganus universiteti

Iqtisodiyot fakulteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada geoiqtisodiyot tushunchasi va uning zamonaviy jarayonlardagi ahamiyati tahlil qilinadi. Buyuk Ipak yo‘lining tarixiy mohiyati hamda XXI asrda qayta tiklanishi — “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi orqali yangi talqinda yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekistonning mintaqaviy va global iqtisodiy hamkorlikdagi roli, savdo, transport va infratuzilma sohalaridagi strategik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: geoiqtisodiyot, Buyuk Ipak yo‘li, O‘zbekiston, mintaqaviy hamkorlik, “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi, transport-logistika, iqtisodiy integratsiya.

Аннотация: В статье анализируется понятие геоэкономики и его значение в современных процессах. В новой интерпретации освещается историческая сущность Великого Шелкового пути и его возрождение в XXI веке посредством инициативы «Один пояс, один путь». Также анализируется роль Узбекистана в региональном и глобальном экономическом сотрудничестве, стратегические возможности в сфере торговли, транспорта и инфраструктуры.

Ключевые слова: геоэкономика, Великий Шелковый путь, Узбекистан, региональное сотрудничество, инициатива «Один пояс, один путь», транспорт и логистика, экономическая интеграция.



Abstract: *This article analyzes the concept of geoeconomics and its significance in modern processes. The historical essence of the Great Silk Road and its revival in the 21st century through the “One Belt, One Road” initiative are highlighted in a new interpretation. The role of Uzbekistan in regional and global economic cooperation, strategic opportunities in the fields of trade, transport and infrastructure are also analyzed.*

Keywords: *geoeconomics, Great Silk Road, Uzbekistan, regional cooperation, “One Belt, One Road” initiative, transport and logistics, economic integration.*

KIRISH

Geoiqtisodiyot — bu iqtisodiy kuchlardan foydalanib geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirish jarayoni sifatida izohlanadi. Hozirgi davrda iqtisodiy manfaatlar davlatlarning tashqi siyosati va strategik yo‘nalishlarini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Buyuk Ipak yo‘li qadim zamonlardan buyon nafaqat savdo-sotiq, balki madaniyat, ilm-fan va diplomatiya almashinuvining markazi bo‘lgan. Bugungi kunda u global iqtisodiyotning yangi bosqichida qayta tiklanib, xalqaro transport yo‘laklari, mintaqaviy integratsiya va iqtisodiy hamkorlikning muhim omiliga aylanyapti.

ASOSIY QISM

Geoiqtisodiyot – qadimdan davlatlar uchun muhim siyosiy-iqtisodiy, diplomatik aloqalar uchun dolzarb bo‘lib kelgan. Geoiqtisodiyot siyosiy-iqtisodiy fan sifatida davlatlarning iqtisodiy resurslaridan, xususan savdo, energetika, transport va moliya vositalaridan foydalanib, global ta’sirini kuchaytirishini o‘rganadi. Bugungi kunda geosiyosiy raqobat ko‘proq iqtisodiy yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, transport yo‘laklari va resurslarga egalik davlatlarning strategik kuchini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Tarixan ma’lumki, Buyuk Ipak yo‘lining tarixiy ahamiyati muhim sanalgan va hozirgi kunga qadar ham o‘z mavqeini saqlab kelmoqda. Miloddan avvalgi II asrdan boshlab Sharq va G‘arbni bog‘lab turgan Buyuk Ipak yo‘li xalqaro savdoning eng muhim arteriyasi hisoblangan. Xitoy ipaklari, O‘rta Osiyo gilamlari, Hindiston



ziravorlari va Yevropa texnologiyalari shu yo‘l orqali almashilgan. Ipak yo‘li orqali nafaqat tovarlar, balki ilmiy g‘oyalar, diniy qarashlar va madaniy qadriyatlar ham tarqalgan. Bu yo‘l O‘zbekiston hududini qadimdan jahon sivilizatsiyalari chorrahasi sifatida shakllantirgan. Bugungi davr taqazosi bilan esa ushbu g‘oyalar modern (yangi) bosqichga yetib keldi. XXI asrda Buyuk Ipak yo‘lining yangi talqini

XXI asrda Xitoy tomonidan ilgari surilgan “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi (OBOR) tarixiy Ipak yo‘lining zamonaviy davomi sifatida qaralmoqda. Bu tashabbus:

transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish,
yangi savdo bozorlarini shakllantirish,
energetik va investitsion hamkorlikni kuchaytirishni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston uchun mazkur tashabbus mintaqaviy transport-kommunikatsiya markaziga aylanish imkoniyatini beradi. Transafg‘on yo‘lagi, Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston temiryo‘li, Kaspiy dengizi orqali tranzit yo‘llar — bularning barchasi yangi geoiqtisodiy makonda O‘zbekistonning rolini oshiradi. Mamlakatimiz ayni vaqtda dunyoga ochilish va zamonaviy-ilmiy tomonlama kengayayotgan davrda ushbu islohatlar aynan o‘rinlidir. Ma’lumki, O‘zbekiston O‘rta Osiyo mintaqasining qoq markazida joylashgan. Bu holat esa ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ozroq noqulayliklarni chiqaradi. Masalan, O‘zbekiston Dengiz yo‘llariga chiqa olmaydi. Dengiz orqali savdo-iqtisodiy aloqalarni amalga oshirmoqchi bo‘lsa, kamida ikki davlat hududidan o‘tishi kerak. Shuning uchun ham O‘zbekiston o‘zining azaliy tinch qo‘shnichilik pozitsiyasidan foydalanib ikki tomonlama manfaatli loyihalarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoda geografik markazda joylashgani sababli mintaqaning tabiiy transport chorrahasi hisoblanadi. “Toshkent – Andijon – O‘sh – Ergashtom” avtomobil yo‘li, “Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar” temiryo‘l loyihasi, Kaspiy dengizi orqali multimodal tashish yo‘laklari mamlakatning tranzit salohiyatini kuchaytirmoqda. Shuningdek, Toshkent xalqaro aeroporti va logistika markazlari orqali mintaq savdo oqimlari boshqarilmoqda.



Buyuk Ipak yo'lining yangi talqini davlatlar o'rtasidagi hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, raqobatni ham kuchaytiradi. Xitoy, Rossiya, Turkiya, Yevropa Ittifoqi va AQSh kabi geoiqtisodiy kuchlar mintaqada o'z ta'sirini oshirishga intilmoqda. O'zbekiston esa "ochiq eshiklar siyosati" va muvozanatli tashqi iqtisodiy strategiyasi orqali global iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

XULOSA

Buyuk Ipak yo'li nafaqat tarixiy savdo arteriyasi, balki XXI asrning geoiqtisodiy makonida strategik tashabbus sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda.

Uning yangi talqini — "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi — O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo uchun iqtisodiy taraqqiyot, transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish, eksport-import imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash imkonini bermoqda. Shu bois, geoiqtisodiyot sharoitida O'zbekistonning asosiy vazifasi – o'zining tranzit salohiyatidan oqilona foydalanib, barqaror rivojlanish va global integratsiyada faol o'rin egallashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International Economics: Theory and Policy. — Pearson Education, 2018.

Nye J. Soft Power and Geoeconomics. Foreign Policy, 2020.

Jalolov S. "Geoiqtisodiyot: Nazariya va amaliyot." — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

Belt and Road Initiative Portal. — <https://www.beltandroad.gov.cn>

Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — Toshkent: O'zbekiston, 1997.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning xalqaro konferensiyalardagi nutqlari va ma'ruzalari.

World Bank. Central Asia Trade and Connectivity Report. — Washington DC, 2023.